Tadqiqot predmetini mazmunan o'rganish jarayonida bir qator quyidagi tushunchalarga aniqlik kiritish lozim, jumladan: "valyuta qimmatliklari – chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasidagi fond boyliklari, qimmatbaho metallar (*shunday toshlardan ishlangan zargarlik va b. ro'zg'or buyumlari hamda ularning parchalari bundan mustasno*)"[10; 38-40 b].

Yuridik ensiklopediya ma'lumotlariga ko'ra, "valyuta boyliklari bu — chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari va sof quyma oltin va shu kabilar hisoblanadi".[11; 41-42 b]

Valyuta tizimi va qo'llanish doirasiga ko'ra quyidagi valyutalar turkumiga ajratiladi:

- 1) erkin konvertatsiyadagi valyuta; ularni har qanday xorijiy valyutaga almashtirish mumkin;
- 2) qisman konvertatsiyadagi valyuta; ularning muomalasi alohida shaxslar va alohida operatsiyalar uchunгина mumkin;
- 3) konvertatsiyalanmaydigan, yopiq valyutalar; ularning muomalasi mamlakat rezidentlari (aholisi) uchun ham va norezidentlari (boshqa shaxslar) uchun ham taqiqlangan;
- 4) kliring valyutasi – tovar va xizmat almashishda hisobga olinadigan o'zaro kelishilgan hisobdan iborat bo'ladi.

Valyuta qimmatliklarini noqonuniy olib chiqish – bu valyuta qimmatliklarini bojxona chegarasi orqali qonunchilikda o'rnatilgan tartibni buzgan holda olib o'tish bo'lib, ular uchun tegishli mamlakatning huquqiy normalariga muvofiq sanksiyalar nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali valyuta qimmatliklarini olib o'tish tartibi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilab qo'yilgan. Ularga O'zbekiston Respublikasining 22.10.2019-yildagi "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi O'RQ-573-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-yanvardagi "Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi naqd valyutasi va naqd chet el valyutasini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib kirish va olib chiqib ketish qoidalarini tasdiqlash haqida"gi 66-sonli Qarori va "Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta operatsiyalari amalga oshirilishining asoslanganligi yuzasidan monitoring olib borish tartibi to'g'risida"gi 05.04.2013-yildagi Nizom kabilar kiradi. Masalan,

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-yanvardagi "Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi naqd valyutasi va naqd chet el valyutasini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib kirish va olib chiqib ketish qoidalarini tasdiqlash haqida"gi 66-sonli Qaroriga ilova qilingan Qoidalarining 2-bandida jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilayotgan va olib chiqib ketilayotgan 100 000 000 (yuz million) so'm ekvivalentidan ortiq miqdordagi O'zbekiston Respublikasining naqd valyutasi va (yoki) naqd chet el valyutasi (keyingi o'rinlarda — naqd valyuta mablag'lari) yo'lovchi bojxona deklaratsiyasini to'ldirish va bojxona organi xodimiga taqdim etish yo'li bilan bojxona nazoratidan o'tkazilishi 5-bandida esa jismoniy shaxslar tomonidan ekvivalenti 100 000 000 (yuz million) so'mga teng yoki undan oshmaydigan miqdordagi naqd valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga bojxona nazorati qoidalariga rioya etilgan holda cheklovlersiz olib chiqilishi, belgilangan summadan ortiq miqdordagi naqd valyuta mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqilishiga yo'l qo'yilmasligi, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ekvivalenti 100 000 000 (yuz million) so'mdan ortiq miqdordagi naqd valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketishga quyidagi holatlarda yo'l qo'yilishi belgilangan:

rezidentlar tomonidan — xorijiy davlatlarga xizmat safariga ketayotgan Hukumat delegatsiyasi a'zolari uchun Vazirlar Mahkamasining farmoyishi asosida;

norezidentlar tomonidan — O'zbekiston Respublikasiga kirish chog'ida rasmiylashtirilgan yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi asosida deklaratsiya qilingan mablag'lar doirasida, shuningdek, respublikada belgilangan tartibda tashkil qilingan xalqaro musobaqalar (tanlovlar, olimpiadalar) sovrindorlari yoki qatnashchilari tomonidan mablag'larning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida. Bunda norezident jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga kirish chog'ida to'ldirilgan yo'lovchi bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan naqd valyuta mablag'laridan respublika hududida qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq foydalanilgan qoldiq miqdori doirasidagi naqd valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqishga yo'l qo'yiladi.

Shu bilan birgalikda shuni aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-yanvardagi 66-son Qaroriga muvofiq Jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilayotgan va olib chiqib ketilayotgan 100 000 000 (yuz million) so'm ekvivalentiga teng yoki undan oshmaydigan miqdordagi naqd valyuta mablag'lari ham deklaratsiya qilinishi mumkinligi bayon qilingan. Ushbu tartib faqat naqd valyutalarga tatbiq etiladi.

Mazkur tartiblarga amal qilinishi ustidan bojxona organlari tomonidan doimiy nazorat amalga oshiriladi.

Valyuta qimmatliklarini bojxonadan olib o'tish bilan bog'liq huquqbuzarliklarni aniqlash uchun bojxona nazoratining turli xil usul va vositalaridan foydalanadi xususan, texnik vositalar, rentgen apparatlari va boshqa zamonaviy asboblardan yordamida yashirilgan tovarni aniqlash;

- bojxona postlarida mavjud kuzatuv kameralari yoki maxsus kuzatuv tizimlari orqali shaxslarning shubhali harakatlari o'rganilib tekshiruvga olinadi va nazorat natijasida yashirilgan valyuta qimmatliklari borligi aniqlanadi;

- bojxona xodimlari tomonidan bojxona deklaratsiyalari va boshqa hujjatlarning to'g'riligini tekshirish orqali aniqlash;

- xalqaro va milliy ma'lumotlar bazalaridan foydalanib tezkor xodimlar yoki HMQO organlar bilan hamkorligi huquqbuzarliklarni fosh etish hamda boshqa turlardan iborat.

Tadqiqot jarayonida bir qator xorijiy mamlakatlar qonunchiligida valyuta qimmatliklari bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tish bilan bog'liq huquqbuzarliklarning vujudga kelish sabablari, fosh qilish usullari va javobgarlik masalalari o'rganildi, xususan Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi qonunchiligi talabiga binoan Rossiya Federatsiyasining amaldagi qonunchiligiga binoan 2023-yil 1-yanvardan boshlab jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali 10 ming AQSH dollari miqdorigacha bo'lgan naqd valyutani deklaratsiya to'ldirmasdan olib chiqish mumkinligi belgilandi.

Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqining Bojxona kodeksiga ko'ra, jismoniy shaxs tomonidan bojxona chegarasi orqali 10 ming AQSH dollar ekvivalentidan ortiq naqd valyutani olib chiqishda deklaratsiya to'ldirish talab qilinadi hamda 100 ming dollardan oshgan summada esa pulning kelib chiqishini tasdiqlovchi qo'shimcha hujjatlar taqdim etilishi kerakligi belgilangan.

Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalarida naqd xorijiy valyutani davlat chegarasidan tashqariga olib chiqish tartibi ushbu mamlakatlarning milliy qonunchiligi hamda Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqiga a'zo davlatlarda ittifoq me'yoriy-huquqiy bazasiga muvofiq tartibga solinadi. Jumladan, Qozog'iston Respublikasida naqd valyutani bojxona chegarasidan olib chiqishda "Valyuta to'g'risida"gi qonun (2018-yil 2-iyuldagi № 167-VI, 14-modda) va YEOf Bojxona kodeksi (260-modda) bilan tartibga solinadi. Unga asosan jismoniy shaxslar 10 000 AQSH dollariga teng yoki undan kam miqdordagi naqd valyutani deklaratsiya talab qilmasdan olib chiqishi mumkin. Agar summa ushbu limitdan oshsa, bojxona organlarida to'liq deklaratsiya talab etiladi, katta miqdorda naqd valyutani esa kelib chiqishini tasdiqlovchi hujjatlar (*masalan, bank ayirboshlash operatsiyalari bo'yicha tranzaksiya cheklari*) talab qilinadi.

Qirg'iz Respublikasida esa naqd valyutani olib chiqish "Qirg'iz Respublikasida valyuta operatsiyalari to'g'risida"gi qonun (1997-yil 5-avgustdagi № 54, 8-modda, o'zgartirishlar bilan) va YEOf Bojxona kodeksi (260-modda) normalariga asoslanadi. YEOfga a'zolik doirasida 10 000 AQSH dollarigacha bo'lgan summa deklaratsiyasiz eksport qilinishi mumkin, undan yuqori miqdorlar esa bojxona deklaratsiyasida aniq ko'rsatilishi va zaruratga ko'ra valyuta manbasini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishi shart.

Turkmanistonda davlatida naqd valyutaning tashqi migratsiyasi "Valyuta nazorati to'g'risida"gi qonun (1993-yil, 7-modda, o'zgartirishlar bilan) bilan qat'iy monitoring ostida amalga oshiriladi. YEOfga a'zo bo'lmaganligi sababli milliy qonunchilik ustuvorlikka ega. Jismoniy shaxslar 10 000 AQSH dollarigacha bo'lgan miqdorni Turkmaniston Markaziy bankining maxsus litsenziyasi bilan olib chiqishi mumkin. Ushbu miqdordan yuqori summa eksporti faqat davlat tomonidan maxsus ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi, bunda naqd valyuta manbasining legitimligini tasdiqlovchi hujjatlar doimiy ravishda talab qilinadi.

Tojikiston Respublikasida valyutani eksport qilish "Tojikiston Respublikasida valyuta tartibga solish va valyuta nazorati to'g'risida"gi qonun (1995-yil 4-noyabrdagi № 100, 12-modda) asosida amalga oshiriladi. Ushbu qonunga asosan jismoniy shaxslar 3 000 AQSH dollarigacha bo'lgan miqdoridagi naqd valyutani deklaratsiyasiz, 3 000 dan 10 000 AQSH dollarigacha bo'lgan summani deklaratsiya bilan olib chiqishi mumkin. 10 000 AQSH dollaridan ortiq miqdor uchun Tojikiston Milliy bankidan maxsus ruxsatnoma olish zarur bo'lib, valyuta manbasining qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlar (*masalan, bank tranzaksiyalari yoki moliyaviy daromad to'g'risidagi ma'lumotlar*) taqdim etilishi talab qilinadi.

Shu bilan birgalikda amaliyotda ayrim shaxslar tomonidan naqd xorijiy valyutalarni olib kirishga uchun berilgan imkoniyatdan o'zlarining g'arazli maqsadlarida foydalanib bojxona chegarasi orqali xorijiy mamlakatlardan soxta valyuta birliklarini olib kirish holatlari uchramoqda, ushbu vaziyatda bojxona nazoratini tez va sifatli olib borish maqsadida xorijiy mamlakatlar bojxona tizimi amaliyotida valyutalardagi banknotlar va boshqa himoyalangan bosma mahsulotlarning haqiqiyligini infraqizil va ultrabinafsha nurlar ta'sir ostida aniqlash imkonini beruvchi "Mercury D-45CU", "DORS 1100" va "PRO 1500 IRPM" ko'rish detektor texnik qurilmalaridan foydalanib ko'plab huquqbuzarliklarni fosh qilishmoqda.

Yuqoridagilarga asosan, mamlakatimiz bojxona tizimida bojxona nazoratini tez va sifatli o'tkazish, huquqbuzarliklarni fosh qilish sifatini oshirish maqsadida ushbu texnik qurilmalarini qo'llash taklifini ilgari suramiz.

Valyuta qimmatliklarini bojxona chegarasidan olib o'tish bilan bog'liq huquqbuzarliklar ijtimoiy xavflilik xususiyatiga ko'ra ma'muriy yoki jinoiy huquq normalari bilan tartibga solinadi. Bojxona haqidagi qonunchilikni buzganlik uchun bevosita jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasida nazarda tutilgan.

"Mazkur jinoyat tarkibi o'rganilganda uning formal tarkibli ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi" [7; 476 b].

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyati valyuta qimmatliklarini quyidagi obyektiv tomon harakatlari ya'ni *bojxona nazoratini chetlab, bojxona nazoratidan yashirib, bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda, deklaratsiyasiz* yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib ko'p miqdorda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish, shunday harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa O'zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasi 1-qismi bilan jinoiy javobgarlikni vujudga keladi.

Quyidagi harakatlarni sodir etish 182-moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan jinoiy javobgarlikni vujudga keltiradi: *juda ko'p miqdorda, chegarani buzib o'tish, ya'ni bojxona xizmatining roziligini olmasdan turib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan ochiqdan-ochiq o'tkazish yo'li bilan, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab hamda xizmat lavozimidan foydalangan holda* sodir etiladi [12; 606 b]. "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyati Jinoyat kodeksining 182-moddasida ko'rsatilgan 9 ta usulda sodir etilishi mumkin hamda ushbu jinoiy qilmishlar uchun jami 5 ta jinoiy jazo turlari qo'llaniladi" [12; 492 b].

Shuningdek, JK 182-moddasi 1-qismi dispozitsiyasi yuqorida ko'rsatilgan harakatlarni hamda jinoyat predmeti qiymatining ko'p miqdorda bo'lishini nazarda tutgani holda ma'muriy preyuditsiyani ham talab qiladi.

Ushbu huquqbuzarlikning ma'muriy preyuditsiyasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning (*keyingi o'rinlarda MJtK*) 227²⁰-227²² moddalar bilan qamrab olinadi va ushbu moddalar bilan javobgarlik belgilanishiga sabab bo'ladi.

"Shaxsning harakatlari O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib kiriladigan yoki olib chiqib ketiladigan O'zbekiston Respublikasi naqd valyutasi va naqd chet el valyutasining deklaratsiya qilinishi talab qilinmaydigan qismidan oshiqcha bo'lgan miqdoridan kelib chiqqan holda kvalifikatsiya qilinadi hamda naqd valyutaning deklaratsiyalash shart bo'lmagan qismi jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik predmeti hisoblanmaydi. Bunda naqd valyuta bir necha shaxslarning ishtirokida, ular o'rtasida taqsimlanib bojxona chegarasi orqali

o'tkazish holati aniqlanganida, qilmish naqd valyutaning jami miqdoridan kelib chiqib kvalifikatsiya qilinadi"[13; 4-5 b].

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilarga asosan xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xorijiy mamlakatlar qonunchiligini qiyosiy o'rganish va tahlil qilish natijasida hamda ushbu sohada amaliyotda yuzaga kelayotgan bir qator muammolarni yechimi sifatida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari suramiz:

Birinchi taklif: JKning 182-moddasi nomlanishini Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishdan "Iqtisodiy kontrabanda" tushunchasiga o'zgartirish va JKning VIII-bo'limiga ushbu tushunchani kiritish;

Ikkinchi taklif: Fuqarolar tomonidan bojxona chegarasi orqali qonunga xilof ravishda valyuta qimmatliklarini xorijiy davlatlarga olib chiqish holatlari, hozirda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 182-moddasiga asosan tovar sifatida qabul qilinadi va shu bilan jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi, ammo, ko'pgina xorijiy mamlakatlar qonunchiligida valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olib o'tishga yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek "iqtisodiy kontrabanda" sifatida ko'rsatilib javobgarlik belgilanganligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, valyuta qimmatliklari va boshqa ashyolarni bojxona chegarasi orqali qonunga xilof ravishda olib o'tish holatlari bilan bog'liq huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligini takomillashtirish zarur. Shu maqsadda, valyuta qimmatliklarini bojxona chegarasi orqali qonunga xilof ravishda olib chiqish holatlarini jinoiy yoki ma'muriy huquqbuzarliklar sifatida baholash va bu kabi holatlar uchun Jinoyat Kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksda alohida javobgarlik choralari belgilash muhim hisoblanadi.

Uchinchi taklif: Amaliyotda jismoniy shaxslar tomonidan xorijiy davlatlarda davolanish va sog'lig'ini tiklash maqsadida naqd valyutani olib chiqish holatlari uchraydi, biroq, davolanish uchun xarajatlar miqdori belgilangan 100 mln so'mdan ortiqcha sarflanishga va o'z navbatida bojxona chegarasi orqali 100 mln so'mdan ortiq summani olib chiqishga ehtiyojlari vujudga kelmoqda, yuqoridagilardan kelib chiqib Vazirlar Mahkamasining 66-sonli Qaroriga "rezidentlar tomonidan davolanish maqsadida xorijiy mamlakatlarga, xorijiy mamlakatlar davolash muassasalarining tasdiqlangan hujjatlari miqdori doirasida olib chiqishga ruxsat beriladi" tarzda o'zgartirish kiritish taklifini bildiramiz.

To'rtinchi taklif: Bojxona organlari tomonidan jismoniy shaxs tomonidan bojxona chegarasi orqali belgilangan normadan ortiqcha olib o'tilgan xorijiy valyutaning miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan chet el valyutasining O'zbekiston Respublikasining pul birligiga nisbatan kursidan kelib chiqib aniqlanadi hamda ushbu miqdordan kelib chiqib huquqbuzarlik ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilangan norma bilan kvalifikatsiya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bugungi kunda bor yo'g'i 75 turdagi chet el valyutasining O'zbekiston Respublikasi so'miga nisbatan kursini belgilab borilmoqda, vaholanki dunyoda jami 256 ta davlatlarning (*Yevropada 48ta, Osiyoda 54ta, Afrikada 57 ta, Amerikada 35 ta, Avstraliya va Okeaniyada 14 ta, boshqa orol davlatlarda 48 ta*) [14] pul birliklari mavjud bo'lib, bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni iqtisodga keng jalb qilish jarayonida Markaziy bank tomonidan belgilangan 75 ta davlat pul birliklaridan tashqari boshqa xorijiy davlat pul birliklarini bojxona chegarasi orqali olib kirish yoki olib chiqish ehtimollari mavjud, ushbu holatda bojxona

nazorati jarayonida aniqlangan va belgilangan normadan ortiqcha xorijiy valyutalarning miqdorini aniqlash hamda huquqbuzarliklarni kvalifikatsiya qilish muammosi vujudga keladi.

Yuqoridagi muammoni hal etish yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari suramiz, Markaziy banki tomonidan nafaqat 75 turdagi xorijiy valyutalarni, balki barcha davlatlarda muomalada bo'lgan va belgilangan hududda naqd to'lov vositasi sifatida qonun bilan tan olingan pul belgilarining O'zbekiston Respublikasi so'miga nisbatan qiymati belgilash tizimini belgilash lozim bo'ladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi Plenumining 20.02.2023-yildagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-sonli Qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktyabrdagi "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi O'RQ-573-son Qonuniga "krosskurs" tushunchasini kiritish taklifini bildiramiz. Xorijiy davlatlarda ushbu "krosskurs" tizimidan keng foydalaniladi. Krosskurs bu ikki valyuta o'rtasidagi kurs nisbati, va bu nisbatlar uchinchi valyutaga nisbatan belgilangan kurs orqali aniqlanadi, bu orqali bojxona xodimi yoki Markaziy bank tomonidan osongina qiymati belgilanmagan xorijiy valyutani kurs aniqlangan xorijiy valyutaga o'girgan holda aniqlash mumkin bo'ladi.

Beshinchi taklif: Amaliyotda ayrim jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali olib o'tmoqchi bo'lgan valyuta mablag'larining belgilangan me'yor doirasidan oshganlik holatlarida, shuningdek, bojxona chegarasi orqali ularni qonunga xilof ravishda olib chiqish maqsadida, bojxona chegarasini kesib o'tish jarayonida mamlakat fuqarolari va boshqa shaxslar bilan oldindan o'zaro kelishuv natijasida belgilangan normadan ortiqcha valyutani yo'lovchilarga me'yor doirasida o'zaro taqsimlab olib chiqish holatlari ko'plab uchramoqda.

Shu bois, qonunchilikda valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan olib chiqishga ko'maklashgan yoki shunday faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etgan shaxslarga nisbatan mas'uliyatni yanada oshirish va ularga nisbatan alohida javobgarlik normalarini kiritish zarur.

Oltinchi taklif: Vazirlar Mahkamasining "Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi naqd valyutasi va naqd chet el valyutasini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib kirish va olib chiqib ketish qoidalarini tasdiqlash haqida"gi 66-sonli Qarorining 8¹-bandida "Jismoniy shaxslar deklaratsiya to'ldirish talab etiladigan belgilangan ekvivalentdan ortiq miqdordagi naqd valyuta mablag'larini bojxona nazorati shakllari qo'llanilmasdan oldin deklaratsiyalamagan holda bojxona organlari xodimlariga maslahat olish maqsadida taqdim etganda, bojxona organlari xodimlari tomonidan jismoniy shaxslarga deklaratsiya to'ldirish qoidalarini bilan bog'liq umumiy tushuntirishlar beriladi" deb bayon qilingan. Amaliyotda bojxona chegarasi orqali harakatlanayotgan rezident va norezident shaxslarda belgilangan 100 mln so'mdan ortiqcha valyuta mablag'lari mavjud bo'lgan, ammo bojxona chegarasidan o'tish jarayonida 100 mlndan ortiqcha bo'lgan pul mablag'ini vaqtincha saqlash uchun qayerga qo'yishni yoki kimga topshirish imkoni topmay, g'ayriqonuniy tarzda ortiqcha valyutani yashirishga yoki boshqa shaxslar orqali olib o'tishga harakat qilib huquqbuzarlik sodir etilayotgan holatlar ko'plab uchramoqda.

Ushbu muammoni hal qilish maqsadida quyidagi taklifni bildiramiz, bojxona nazorati hududida joylashgan hamda aholiga xizmat ko'rsatuvchi bank filiallarida fuqarolarning valyuta pul mablag'larini ma'lum bir muddatga ya'ni xorijiy davlatdan qaytib kelguncha yoki ishonch bildirgan shaxs tomonidan qabul qilib olgunga qadar vaqtincha saqlash xizmatini joriy etish

lozim bo'ladi, bu orqali fuqarolarning jismoniy shaxslarining ortiqcha ovoragarchiligini va huquqbuzarlik sodir etilishining oldi olingan bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. "Bojxona huquqbuzarliklarining oldini olish, tergov qilish va ularni bartaraf etishda o'zaro ma'muriy yordam ko'rsatish to'g'risida"gi xalqaro Nayrobi Konvensiyasi. 09.06.1977 y 18 b;
2. "Bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati". Kollektiv avtorlik. Darslik. – T. Bojxona instituti. 2021. 492 b;
3. Djumabekova B.N. Kontrabanda: istoriko-pravovoye issledovaniye: Avtoref. diss. kand. yurid. nauk. – Bishkek, 2011 15 b;
4. Kuznetsov A.P. Kontrabanda nalichnix denejnix sredstv i (ili) denejnix instrumentov: ugovnopravovaya reglamentatsiya i voprosi kvalifikatsii // Rossiyskiy sledovatel. 2015. № 2. 31 b;
5. Lyaskalo A.N. Ugolovnaya otvetstvennost za nezakonniye operatsii po obnalichivaniyu tranzita denejnix sredstv // Rossiyskiy sledovatel. 2014. № 17. 23-28 b;
6. Kozemaslov D.V. Kontrabanda (ugolovno-pravoviye aspekti). Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata yuridicheskix nauk/ YE., 2002. 177 b;
7. Rustamboyev M.H. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent.: "ILM ZIYO", 2015. 476 b;
8. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh Maxsus qism. – T.: "Adolat", 2016. – 960 b;
9. Hamidov N.O. Kontrabanda tushunchasi va kontrabanda uchun jinoiy javobgarlikning ijtimoiy zaruriyati. Ilmiy-elektron maqola. <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2019-9 12> b;
10. Yuridik atamalar izohli lug'ati Fanlar akademiyasi davlat va huquq instituti Toshkent-2021 38-40 b;
11. Yuridik Ensiklopediya U.Tadjixanov tahriri ostida Toshkent-2001 41-42 b;
12. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. T.: "Adolat", 2016. 606 b;
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 20.02.2023 yildagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-sonli qarori 4-5 b;
14. https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlatlar_pul_birliklari_ro%CA%BByxati

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).